

BOLALAR QO'SHIQLARINI TASNIFLASH MEZONLARI VA QIYOSIY-POETIK TAHLIL METODOLOGIYASI

Abdullaeva Sayyora

Qoraqalpoq davlat universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrası stajyor-o'qituvchisi

48877//67243.674/0009-0000-3167-9499

pulatovnasayyora@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21867942>

Annotatsiya. Maqolada bolalar qo'shiqlarini tasniflashning genetik, funksional, yosh, ijro, musiqiy va poetik-kompozitsion mezonlari tahlil qilinadi. Qoraqalpoq, turkman va ingliz bolalar qo'shiqlarini yagona ilmiy tizimda qiyoslash uchun ko'p bosqichli tasnif modeli taklif etiladi. Unda asarning yetakchi funksiyasi asosiy mezon, ijrochi va adresat munosabati, yosh bosqichi, musiqiylik darajasi, harakat, kompozitsiya va poetik vositalar esa aniqlashtiruvchi parametrlar sifatida belgilanadi. Qiyosiy-poetik tahlilda matn, tovush, kuy, harakat va ijro kontekstining birligi asoslanadi. Qoraqalpoq häyiwi, turkman hüwdisi va ingliz lullabysi, shuningdek, erkalama, sanama va kuylanuvchi o'yin janrlarini qiyoslash tamoyillari ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: bolalar qoshigi, janr tasnifi, yetakchi funksiya, ijro konteksti, qiyosiy poetika, häyiw, hüwdi, lullaby, sanama, kuylanuvchi oyin.

Аннотация. В статье анализируются генетические, функциональные, возрастные, исполнительские, музыкальные и поэтико-композиционные критерии классификации детских песен. Для сравнительного изучения каракалпакских, туркменских и английских детских песен предлагается многоуровневая классификационная модель. В ней ведущая функция произведения определяется как основной критерий, а отношения исполнителя и адресата, возрастная принадлежность, степень музыкальности, движение, композиция и поэтические средства рассматриваются как уточняющие параметры. Обосновывается единство текста, звучания, мелодии, движения и исполнительского контекста.

Ключевые слова: детская песня, жанровая классификация, функция, исполнительский контекст, сравнительная поэтика, колыбельная песня, считалка, игровая песня.

Abstract. The article examines the genetic, functional, age-related, performative, musical, and poetic-compositional criteria used to classify children's songs. It proposes a multilevel classification model for the comparative study of Karakalpak, Turkmen, and English children's songs. The dominant function is regarded as the primary criterion, while performer-addressee relations, age group, degree of musicality, movement, composition, and poetic devices serve as specifying parameters. The study also substantiates an integrated method based on text, sound, melody, movement, and performance context.

Keywords: children's song, genre classification, dominant function, performance context, comparative poetics, lullaby, counting-out rhyme, singing game.

Kirish. Bolalar qo'shiqlarini ilmiy tasniflashdagi asosiy muammo janr nomlarining ko'pligida emas, balki bitta matnda bir necha vazifa, ijro shakli va poetik belgining birlashishidir. Alla bolani uxlatish bilan birga onaning kechinmalari va farzand kelajagi haqidagi orzularini ham ifodalaydi. Erkalama jismoniy harakat, hissiy muloqot va nutqiy mashqni uyg'unlashtiradi. O'yin qo'shig'i kuylansa-da, uning yetakchi vazifasi o'yin harakatini boshqarishdan iborat bo'lishi

mumkin. Sanama esa she'riy va ritmik tuzilishga ega bo'lsa ham, ishtirokchini tanlash yoki o'yindan chiqarish vazifasi bilan ajralib turadi.

Shu sababli bolalar qo'shiqlarini faqat mavzu, matn shakli yoki milliy janr atamasi asosida tasniflash ularning haqiqiy funksional va poetik tabiatini to'liq ochib bermaydi. Qoraqalpoq, turkman va ingliz materiallarini yagona ilmiy tizimda qiyoslash uchun ko'p mezonli va iyerarxik tasnif talab etiladi. Bunday tasnifda barcha belgilar bir xil mavqega ega bo'lmaydi. Dastlab asarning yetakchi funksiyasi va ijro vaziyati aniqlanib, undan keyin ijrochi–adresat munosabati, yosh bosqichi, musiqiy-intonatsion tuzilish, harakat, kompozitsiya va poetik vositalar o'rganilishi lozim.

Bolalar folklorining mavjud tasniflari. Genetik tasnif. Olimlar O.I.Kapitsa, V.P.Anikin va M.N.Melnikov qarashlariga tayangan tasniflarda bolalar folklori kelib chiqishiga ko'ra uch asosiy qatlamga ajratiladi: a) kattalar tomonidan bolalar uchun yaratilgan asarlar; b) kattalar folkloridan bolalar muhitiga o'tgan matnlar; v) bolalarning mustaqil ijodiy muhitida shakllangan asarlar [1, 5–18; 2, 239; 3, 10–20].

Olim O.V.Slon ham ushbu uch qatlamni bolalar folklorining tarixiy tarkibini belgilovchi asosiy genetik model sifatida keltiradi [4, 6–7].

Mazkur mezon qo'shiqning tarixiy manbasini aniqlashga yordam beradi, biroq uning hozirgi janriy vazifasini har doim ham belgilab bermaydi. Masalan, dastlab kattalar tomonidan ijro etilgan mavsumiy qo'shiq bolalar muhitiga o'tgach, o'yin qo'shig'i vazifasini bajarishi mumkin. Aksincha, bolalarning o'zi yaratgan matn kuydan, ritmik deklamatsiya shaklida aytilsa, uni qo'shiqdan ko'ra sanama, aytishma yoki nutqiy formula sifatida baholash to'g'riroq bo'ladi.

Demak, genetik mezon janrni belgilovchi birlamchi asos emas, balki matnning bir ijtimoiy muhitdan ikkinchisiga o'tishi va tarixiy o'zgarishini tushuntiruvchi qo'shimcha parametrdir.

Ijrochi, adresat va yosh mezoni. Rus olimi G.S.Vinogradov bolalar xalq poeziyasini maishiy vazifasiga ko'ra o'yin, ko'ngilochar, satirik, maishiy va taqvimiy folklorga ajratgan. U kattalar tomonidan ijro etiladigan parvarish poeziyasini bolalarning mustaqil folkloridan tashqarida o'rgangan [5, 3–14]. O.I.Kapitsa esa adresat va bolaning yosh bosqichini hisobga olib, onalar poeziyasini bolalar folklori tizimiga kiritgan [6, 10–20].

Ijrochining yoshiga asoslangan tasnif bolalarning mustaqil ijodiy muhitini aniqlash imkonini beradi. Biroq alla va erkalam singari janrlarni faqat kattalar ijodining tarkibiy qismi deb hisoblash ularning bolaga yo'naltirilgan musiqiy, ritmik va emotsional belgilarini e'tibordan chetda qoldiradi. Asarni katta kishi ijro etishi uning avtomatik ravishda kattalar folkloriga mansubligini anglatmaydi. Agar qo'shiqning adresati bola bo'lsa, uning ritmi, kuyi, obrazlari va ijro usuli bolaning ruhiy-fiziologik xususiyatlariga moslashgan bo'lsa, bunday namuna bolalar qo'shiq folklori tizimida o'rganilishi kerak.

Funksional tasnif. Olim M.Yu.Novitskaya funksional yondashuv asosida bolalar folklorini o'yin va o'yindan tashqari janrlarga ajratadi. Uning fikricha, motor harakat yoki maxsus so'z o'yini matnning tashqi belgisi emas, balki asosiy maqsadi bo'lsa, asar o'yin folkloriga kiradi. Mustaqil poetik obraz yaratishga yo'naltirilgan qo'shiq, she'riy ertakcha, hazil aytimi va murojaat formulalari esa o'yindan tashqari she'riy folklori tashkil qiladi [7].

Bu yondashuv bolalar qo'shiqlarini sanama, tez aytish va o'yinni tashkil qiluvchi sof nutqiy formulalardan ajratishda muhimdir. Biroq bolalar folkloridagi polifunksionallik sababli bitta vazifani mutlaqlashtirish mumkin emas. Masalan, o'yin qo'shig'i bir paytning o'zida estetik zavq berishi, bolalarni jamoaga birlashtirishi, nutq va jismoniy harakatni rivojlantirishi mumkin.

Shuning uchun tasnif jarayonida “asarda qanday funksiyalar mavjud?” degan savoldan ko‘ra “muayyan ijro vaziyatida qaysi funksiya qolgan vazifalarni o‘ziga bo‘ysundirmoqda?” degan savol muhimroqdir. Ana shu ustuvor vazifa asarning yetakchi funksiyasi hisoblanadi.

Poetik-kompozitsion tasnif. Olim M.N.Melnikov bolalar qo‘shiqlarini kompozitsion tuzilishiga ko‘ra dialogik, kumulyativ, naqoratli va o‘zaro ovoqli javobga asoslangan qo‘shiqlarga ajratadi [8, 10–25]. Mazkur tasnif matnning ichki qurilishini ifodalashda samarali bo‘lsa-da, dialog, kumulyatsiya va naqorat har doim mustaqil janrni anglatmaydi. Ular turli janrlarda qo‘llaniladigan kompozitsion modellar hamdir.

Masalan, alla naqoratli, o‘yin qo‘shig‘i dialogik, sanama esa kumulyativ tuzilishga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun kompozitsion belgi janrning asosiy nomini emas, uning ichki poetik tipini ko‘rsatishi lozim. Janr funksional jihatdan aniqlanganidan keyin uning dialogik, kumulyativ, naqoratli yoki monologik shakli belgilanadi.

Qiyosiy-poetik tahlil metodologiyasi. Qiyosiy-poetik tahlilning maqsadi turli tillardagi tashqi jihatdan o‘xshash misralarni topishdan iborat emas. Uning asosiy vazifasi turli madaniyatlarda bir xil yoki yaqin funksiya bajaruvchi janrlarning poetik tizimi, ijro usuli va milliy-estetik xususiyatlarini ochishdir. Shu sababli qiyoslashdan oldin umumiy ilmiy asos - *tertium comparationis*, ya’ni barcha materiallarda bir xil tekshiriladigan mezon belgilanishi lozim.

Masalan, qoraqalpoq häyiwi, turkman hüwdisi va ingliz lullabysi milliy nomlari yoki matnidagi ayrim o‘xshash so‘zlar asosida emas, quyidagi umumiy belgilar orqali qiyoslanadi: bolani uxlatish va tinchlantirish funksiyasi; tebratish harakatiga muvofiq ritm; murojaat va erkalash formulalari; takror va naqoratning qo‘llanishi; uyqu, himoya va kelajak istagi motivlari; kuy sur’ati va ijro vaziyati.

Olim Dan Ben-Amos folklorni “kichik guruhdagi badiiy kommunikatsiya” sifatida ta’riflab, matnni ijrochi, adresat va vaziyatdan ajratmasdan o‘rganish zarurligini asoslagan [9, 10–13]. Ushbu qarash bolalar folklori uchun alohida ahamiyatga ega, chunki bir xil matn ona tomonidan beshik yonida aytilganda alla, bolalar guruhida harakat bilan ijro etilganda esa o‘yin aytimi vazifasini bajarishi mumkin.

Umuman olganda, bolalar qo‘shiqlarining ilmiy tasnifi bitta mezonga asoslanishi mumkin emas. Genetik mezon matnning kelib chiqishini, ijrochining yoshi uning ijtimoiy muhitini, funksiya amaliy va estetik vazifasini, kuy musiqiy maqomini, harakat ijro tabiatini, kompozitsiya esa ichki poetik qurilishini ko‘rsatadi. Shu sababli funksiyani asosiy, qolgan belgilarni uni aniqlashtiruvchi iyerarxik parametrlar sifatida qo‘llash eng maqbul yondashuvdir.

Qoraqalpoq häyiwi, turkman hüwdisi va ingliz lullabysini qiyoslashda milliy atamalarning tashqi muvofiqligi emas, yetakchi funksiya, ritm, kuy, murojaat formulasi, motiv, obraz va ijro vaziyati asosiy mezon bo‘lishi kerak. Matn, tovush, kuy, harakat va kontekst birligiga tayangan metodologiya bolalar qo‘shiqlaridagi universal janr belgilarini hamda har bir xalqning milliy-estetik xususiyatlarini aniqroq ochishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Капица О.И. Детский фольклор. - Ленинград, 1928. - С. 5–18; Капица О.И. Программа для собирания детского фольклора. - Петрозаводск, 1928. - С. 3–15.
2. Аникин В.П. Русские народные пословицы, поговорки, загадки и детский фольклор. - Москва: Государственное учебно-педагогическое издательство Министерства просвещения РСФСР, 1957. - С. 239. <https://biblio.imli.ru>

3. Мельников М.Н. Русский детский фольклор. - Москва: Просвещение, 1987. - С. 10–25.
4. Слонь О.В. Детский русский фольклор: учебно-методическое пособие. - Ставрополь: СКФУ, 2018. - С. 6–7.
5. Виноградов Г.С. Детский фольклор и быт: программа наблюдений. - Иркутск, 1925. - С. 3–14.
6. Капица О.И. Детский фольклор. - Ленинград, 1928. - С. 5–18.
7. Новицкая М.Ю. Русский детский внеигровой фольклор (стихотворные жанры): диссертация кандидата филологических наук. - Москва, 1984.
8. Мельников М.Н. Русский детский фольклор. - Москва: Просвещение, 1987. - С. 10–25.
9. Ben-Amos D. Toward a Definition of Folklore in Context // The Journal of American Folklore. - 1971. - Vol. 84. - No. 331. - P. 3–15.
10. Новицкая М.Ю. Русский детский внеигровой фольклор (стихотворные жанры). - Москва, 1984. <https://search.rsl.ru>